

TA'LIM VOSITALARI ORQALI DIDAKTIK IMKONIYATLARNI TAKOMILLASHTIRISH

*Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

Dilnoza Berikbayeva

uchuntelevizor45@gmail.com

ORCID 0009-0006-7836-317X

Annatosiya: mazkur maqolada ta'lim vositalaridan samarali foydalanish orqali o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan hamda didaktika pedagogik faoliyatning asosiy ish quroli sifatida talqin etilgan. Ta'lim jarayonida zamonaviy o'quv vositalarini maqsadga muvofiq va tizimli qo'llash orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, ta'lim vositalarining pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy mahorat, kompetensiya, fan, sintez, pedagog, mahorat.

IMPROVING DIDACTIC CAPABILITIES THROUGH EDUCATIONAL TOOLS

Gulistan State Pedagogical Institute

Master's Student (1st Year),

Pedagogy Education Program

Dilnoza Berikbayeva

uchuntelevizor45@gmail.com

ORCID 0009-0006-7836-317X

Abstract: this article examines the improvement of teachers' professional capacities through the effective use of educational tools, considering didactics as a fundamental instrument of pedagogical activity. The study highlights issues of quality and efficiency in the educational process achieved through the purposeful and systematic application of teaching aids. Particular attention is paid to the role of educational tools in enhancing pedagogical competence and ensuring the integration of theoretical knowledge with practical teaching experience.

Keywords: professional mastery, competence, subject, synthesis, pedagogue, pedagogical skills.

O'zbekiston Respublikasida mustaqil huquqiy-demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar inson omiliga, uning intellektual, ma'naviy va kasbiy salohiyatiga bo'lgan e'tiborni tubdan kuchaytirdi. Mazkur jarayon inson mohiyatini yangicha anglash, uning o'zligini ro'yobga chiqarish, shuningdek, ma'naviy-ilmiy merosga nisbatan zamonaviy yondashuvlarni shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu holat, ayniqsa, ta'lim tizimida yangicha pedagogik tafakkur, innovatsion metod va texnologiyalarni joriy etishni dolzarb vazifaga aylantirdi [1:34]. Zamonaviy ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, shaxsning mustaqil fikrlashi, ijodiy faoliyati va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan murakkab tizim sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda maxsus fanlar o'qituvchilari hamda muhandis-pedagoglardan ishlab chiqarish jarayonining mazmun-mohiyatini chuqur anglash, o'z kasbiy faoliyatini puxta rejalashtirish, shuningdek, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali va maqsadga muvofiq foydalanish talab etiladi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnik vositalar, audiovizual resurslar va didaktik materiallardan oqilona hamda tizimli foydalanish o'quvchilarning bilimlarni puxta va ongli o'zlashtirishiga, nazariy tushunchalarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lashiga hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi [2:57]. Shu nuqtayi nazardan, o'qitishning ko'rgazmali metodlari ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik omil sifatida e'tirof etilib, o'quvchilarning bilish faolligini kuchaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ko'rgazmalilik tamoyili pedagogika fanida qadimdan muhim didaktik prinsip sifatida qaralib kelinadi. Mazkur prinsipning nazariy asoslari Ya.A.Komenskiyning "Buyuk didaktika" asarida chuqur yoritilgan bo'lib, unda bilimlarni egallash jarayoni bevosita sezgi organlari orqali amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlanadi. Komenskiy ta'lim jarayonida ko'rish, eshitish, ushlash, hidlash va ta'm bilish kabi sezgi vositalarini uyg'un qo'llash bilimlarning mustahkam va ongli o'zlashtirilishiga olib kelishini asoslab bergan [2:61]. Ushbu g'oyalar keyinchalik I.G.Pestalozzi, A.Disterveg, K.D.Ushinskiy kabi yirik pedagoglar hamda jadid ma'rifatparvarlari tomonidan rivojlantirilib, amaliy pedagogik faoliyatda keng qo'llanilgan [3:88]. O'qitish jarayonida ko'rgazmalilikdan foydalanishning pedagogik ahamiyati shundaki, u o'quvchilarning idrok faoliyatini faollashtiradi, kuzatish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi hamda nazariy bilimlar bilan amaliy tajriba o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi [4:439]. Natijada o'quvchi nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtiradi, balki ularni real vaziyatlarda qo'llash malakasiga ham ega bo'ladi.

Ta'lim vositalari deganda, o'qitish va o'rganish jarayonida axborotni yetkazish, bilimlarni mustahkamlash hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi barcha moddiy va nomoddiy resurslar tushuniladi. Foydalanish xususiyatiga ko'ra ta'lim vositalari ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi va bevosita dars jarayonida

qo'llaniladigan vositalarga ajratiladi. Ta'lim beruvchi uchun mo'ljallangan vositalarga o'quv-metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, dars ishlanmalari, o'quv dasturlari va ma'ruza matnlari kiradi [3:102]. Ta'lim oluvchi uchun esa darsliklar, o'quv qo'llanmalar, jadvallar, texnologik xaritalar va topshiriq varaqalari muhim ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida foydalaniladigan vositalar qatoriga esa plakatlari, modellar, maketlar, texnik va audiovizual vositalar, shuningdek, real obyektlar kiradi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim ta'lim vositalari o'zining funksional imkoniyatlariga ko'ra bir vaqtning o'zida bir nechta pedagogik vazifalarni bajarishi, ya'ni axborot berish, mustahkamlash va nazorat qilish jarayonlarida qo'llanilishi mumkin. Shu bois ta'lim jarayonida tanlab olingan metodlar, shakllar va ta'lim vositalarining o'zaro uyg'un va tizimli ravishda qo'llanilishi ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biri hisoblanadi [5:227]. Ta'lim vositalari mazmuni hamda texnik xususiyatlariga ko'ra bosma, texnik va real turlarga ajratilib, ularning har biri muayyan didaktik maqsad va vazifalarni amalga oshirishga, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Dars jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar va didaktik materiallarni tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki ularning ta'lim-tarbiyadagi o'rni, estetik ko'rinishi va pedagogik qiymati ko'pincha yetarli darajada anglanmaydi. Eng samarali dars – bu o'quvchini mustaqil fikrlashga, izlanishga va ijodiy faoliyatga undovchi darsdir [6:321]. Shu bois pedagog tomonidan yaratiladigan har bir didaktik vosita dars mazmunini boyitishi, o'quvchilar faolligini oshirishi va ta'lim natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi lozim.

Didaktik materiallar o'quvchilarning bilimlarni chuqur va ongli o'zlashtirishiga, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga hamda o'quv jarayonida tezkor va ijodiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Har qanday dars singari, unda qo'llaniladigan jihozlar va vositalar ham ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarni kompleks tarzda bajarib, o'quvchilarning shaxsiy va intellektual kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [7:384]. Shu ma'noda ko'rgazmali qurollar va o'quv-didaktik materiallar dars jarayonida belgilangan maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlovchi muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi hamda ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin egallaydi.

Ta'limiy-didaktik ishlanmalar foydalanish maqsadiga ko'ra bevosita dars mashg'ulotlari hamda sinfdan tashqari tadbirlar uchun mo'ljallanishi mumkin. Ular ilmiy jihatdan asoslangan, davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos, o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, mazkur materiallar estetik jihatdan puxta, foydalanishga qulay, mazmunan aniq va ijodiy yondashuvni rag'batlantiruvchi bo'lishi lozim [8:228]. Eng muhimi, ular o'quvchilarda bilish, anglash, mushohada yuritish va mustaqil fikrlash motivlarini shakllantirishga xizmat qilishi zarur [9:14]. Shuni alohida ta'kidlash joizki,

didaktik materiallar va texnik vositalar ta'lim jarayonining maqsadi emas, balki ushbu maqsadlarga erishishni ta'minlovchi samarali vositalardir [10:6]. Ularni tayyorlash jarayoni o'qituvchidan kasbiy mahorat, ijodkorlik va pedagogik tafakkurni talab etadi hamda uning metodik kompetensiyasini yanada rivojlantiradi [11:6987]. Natijada darslar mazmunan boyib, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi ortadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim tizimida ko'rgazmali qurollar, texnik vositalar va o'quv-didaktik materiallardan oqilona va maqsadli foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar ta'lim mazmuni hamda uni tashkil etish shakllarini tubdan yangilashni talab etar ekan, pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvlar va ilg'or metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur sharoitda didaktik materiallar o'quvchilar bilimini faqat yetkazib beruvchi vosita bo'lib qolmasdan, balki ularning bilish faoliyatini faollashtiruvchi, mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantiruvchi samarali pedagogik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ko'rgazmalilik tamoyiliga asoslangan ta'lim jarayoni o'quvchilarning idrok, tafakkur va tasavvur doirasini kengaytiradi, nazariy bilimlarning ongli va barqaror o'zlashtirilishini ta'minlaydi hamda ularni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash imkonini yaratadi. Ayniqsa, murakkab tushunchalar va jarayonlarni vizual vositalar orqali tushuntirish o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning o'zlashtirish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, didaktik materiallardan tizimli va metodik jihatdan to'g'ri foydalanish o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik hamkorlikni mustahkamlab, ta'lim jarayonining interfaol va samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi. Ta'limiy-didaktik ishlanmalarni tayyorlash va qo'llash jarayoni pedagogdan yuqori kasbiy kompetensiya, ijodiy yondashuv va metodik mahoratni talab etadi. Ushbu jarayon o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga, pedagogik tajribasining boyishiga hamda ta'lim jarayonini loyihalash va boshqarish bo'yicha amaliy ko'nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada dars mashg'ulotlari mazmunan boyib, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi, bilishga bo'lgan ehtiyoji va o'quv motivatsiyasi sezilarli darajada ortadi. Shuningdek, didaktik materiallardan darsdan tashqari mashg'ulotlar, to'garaklar, fan olimpiadalari va turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda foydalanish o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish, ularning iqtidorini qo'llab-quvvatlash hamda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlab, o'quvchilarni hayotiy kompetensiyalarni egallashga tayyorlaydi. Umuman olganda, ko'rgazmali qurollar va o'quv-didaktik materiallar ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ular orqali ta'limning samaradorligi, sifati va natijadorligini oshirish mumkin. Mazkur vositalarni ilmiy asoslangan holda, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib, davlat ta'lim

standartlari talablari asosida ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR \ REFERENCES

1. Yo'ldoshev J.G., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari -T., 2004
2. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфулов Д.М., Тўраев А.Б. – Тошкент, 2015.
3. Ж.Ф.Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари.-Т., 2004
4. Alikulovich, Berikbaev Alisher. "Development of Professional Competence of the Pedagogue through Visual Means." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 1 (2023): 438-442.
5. KILIÇ ATEŞ S., BERİKBAEV A. A. Pedagogical competencies in art education and the impact of educational reforms: The case of Uzbekista //Balikesir University Journal of Social Sciences Institute. – 2025. – T. 28. – №. 53.
6. Hamidov D. O'QITISHNING AHAMIYATI //OLIY TA'LIM MUASSASALARINDA MUHANDISLIK MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI. Xalqaro ilmiy tadqiqotchilar jurnali (IJSR) INDEKSLASH. – 2024. – T. 4. – B. 320-323.
7. Alikulovich, B. A. (2024). BO 'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O 'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH YO 'LLARI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 16), 383-385.
8. Berikbayev A. KOMPETENTSIYA-FAOLIYATIMIZNI MUSTAQIL VA IJODIY AMALGA OSHIRISHDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – T. 2. – 4.1-son. – 226-229-betlar.
9. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCIES AS THE FOUNDATION OF PROFESSIONAL GROWTH FOR VISUAL ARTS TEACHERS. Zenodo." 2025,
10. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "ORGANIZING VISUAL ARTS LESSONS AND ENHANCING THEIR EFFECTIVENESS BASED ON MODERN PEDAGOGICAL REQUIREMENTS." CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY. Vol. 1. No. 5. 2025.
11. Berikbaev, Alisher Alikulovich. "Development of competence skills of art education students." *International Journal of Psychosocial Rehabilitation* 24.4 (2020): 6984-6988.